

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING VOYAGA YETMAGANLAR
O`RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATINI
TASHKIL ETISHDA TA'LIM MUASSASALARI BILAN
HAMKORLIGINING O`RNI**

Turdaliyev Muhammadali Ummatali o`g`li
O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi
ta`lim 3-kurs 309-guruh kursanti,

Annotatsiya:

ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining voyaga yetmaganlar va yoshlar o`rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda ta`lim muassasalari bilan hamkorligini amalga oshirish, uning mazmun va mohiyati, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olish borasida profilaktika inspektorlarining vazifalari, ushbu faoliyatni takomillashtirish yo`nalishlari bo`yicha muammo va takliflar yoritib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** voyaga yetmagan, hamkorlik, huquqiy ta`minlash, normativ-huquqiy tartibga solinganligi, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklarni oldini olishdagi hamkorlik, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar, ta`lim muassasasi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta`lim sohasida ko`plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev: “Yangi O`zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta`lim va tarbiya bo`ladi” degan g`oyani ilgari surishi ham ushbu sohaga katta e`tibor qaratilayotganligini anglatadi. Xususan voyaga yetmaganlar o`rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatchilikni oldini olish va bartaraf etish borasida ham profilaktik ishlarni samarali amalga oshirishni tashkil etish dolzarb masala sifatida ko`rilmoqda. Shu faoliyatni amalga oshirish borasida profilaktika inspektorlari ta`lim muassasalari bilan hamkorlikda faoliyatini olib bormoqda.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to`g`risida”gi qonuning 17-moddasida Ta`limni davlat tomonidan boshqarish organlarining va ta`lim muassasalarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari keltirilgan bo`lib, ular quydagilar:

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

ta`lim oluvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o`rnini bosuvchi shaxslar o`rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

ta'lim oluvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

ta'lim oluvchilarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga yo'naltirilgan dasturlar hamda uslublarni ishlab chiqadi va ta'lim muassasalarining ish amaliyotiga joriy etadi;

ta'lim oluvchilar orasida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlaydi hamda ularga nisbatan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'radi;

ta'lim oluvchilarning bandligini va bo'sh vaqti mazmunli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida

ta'lim muassasalarida hammabop sport seksiyalari, texnik va boshqa to'garaklar, klublar tashkil etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari ichki ishlar organlariga:

huquqbuzarliklar faktlari haqida;

odamlarning hayotiga yoki sog'lig'iga tahdid soladigan oilaviy-maishiy nizolar to'g'risida va oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi huquqbuzarliklar haqida;

ta'lim oluvchi shaxs g'ayriijtimoiy xulq-atvoriga va huquqbuzarliklar sodir etishga jalb etilganligi haqida;

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar haqida xabar qilishi shart.

Bugungi zamonaviy jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri bolalar va o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning ko'payishiga yo'l qo'ymaslikdir. Prezident huzuridagi Statistika agentligi e'lon qilgan hisobotga ko'ra 2023-yilda O'zbekistonda 3599 nafar voyaga yetmaganlar (13-17yoshli) jinoyat sodir etganligi uchun ro'yxatga olingan. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 15,6 foizga (3112) va 2021-yilga nisbatan 40 foizga (2595) ko'paayagan. Jinoyatchilikning keskin ko'payishini, uning uyushgan, qurollangan, shafqatsiz bo'lishini, yoshlarning umumiy jinoyatlari orasida mast va narkotik moddalar ta'sirida sodir etilayotgan jinoyatlar ulushining ko'payishi, jinoyatlar ishtirokchilari orasida ish va o'qish bilan band bo'lmaganlar hissasining ko'payishi keltirib chiqarmoqda. Bu esa voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarni va ularning jinoyatchilik holatiga ta'sirini o'rganishni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-sonli "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq 2021-yil 1-sentyabrdan e'tiboran qarovsiz bolalar bilan ishlash tizimida shunday tartib joriy etildiki, voyaga yetmagan shaxsning qarovsiz qolganligini aniqlash bo'yicha inspektor-psixologlar tomonidan - ta'lim muassasalarida, profilaktika inspektorlari tomonidan – xizmat hududida, mahalla fuqarolar yig'ini raislari va xotin-qizlar faollari tomonidan – oilalarda o'rganish va profilaktik tadbirlarni amalga oshirish jarayonida qarovsiz bolalar aniqlanadigan bo'ldi.

Voyaga yetmagan huquqbuzar shaxsi shakillanishiga tarbiyasining o'g'irligi ham o'zini ta'sirini ko'rsatadi. Tarbiyasining o'g'irlashuviga esa oiladagi va bolani o'rab turgan tashqi muhit olib keladi. O'smirlar o'z qilmishlarini ko'pincha tashqi ta'sir ostida amalga oshiradi. Bunday vaziyatda huquqbuzarliklarning oldini oluvchi subyektlar sifatida oila, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilik hisoblanadi. Aynan ular tomonidan voyaga yetmaganlarga to'g'ri ta'lim va tarbiya berish orqali jamiyat uchun kerakli shaxs sifatida shakillantirish mumkin bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining o'ziga xos jihatlardan biri ularning guruh bo'lib sodir etilishidir. Voyaga yetmaganlar kamdan kam holarda yolg'iz harakat qilishadi. Buning sababi ularning shaxsiyati hali to'liq shakillanib bo'lmaganligi va qo'rquv bo'lsa kerak deb o'ylayman. Bundan tashqari, sodir etiladigan huquqbuzarliklar yoshga bog'liq bo'lgan qiziqqonlik, o'zini tuta olmaslik, tengdoshlariga qo'shilish, ulardan ortda qolmaslik oqibatida kelib chiqadi. Ular o'zi sodir etayotgan noqonuniy qilmishning mohiyatini ko'p hollarda to'liq anglab yetmaydi ham. Shu kabi xususiyatlar tufayli ham o'spirin yoshdagilar noqonuniy harakatga katta yoshli insonlarga nisbatan tezroq qo'l urishi mumkin. Shuningdek voyaga yetmaganlar orasida boylik, obro-e'tiborga o'chlik yuqori bo'ladi, bundan katta yoshdagi dalolatchilarning foydalanishi oqibatida ham voyaga yetmaganlar tomonidan noqonuniy harakatalar sodir etilishi kuzatiladi.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2896-sonli qarorining 2-ilovasiga muvofiq qabul qilingan "Ichki ishlar organlari tayanch punkti to'g'risida"gi Nizomga asosan voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni bevosita amalga oshirish vazifasi tayanch punktlari zimmasiga yuklatilgan. Ta'lim muassasasida tahsil olayotgan yoshlarning deyarli barchasi voyaga yetmagan va yoshlar toifasiga kiruvchi shaxslardan iborat. Ushbu vazifani bajarish uchun profilaktika inspektorlari bevosita ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradilar. Har bir

profilaktika inspektorlari ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazib, jamiyatimizda voyaga yetmagan va yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik va jinoiy holatlarning oqibatlarini, qilmishidan pushaymon bo'lgan huquqbuzar voyaga yetmaganlar bilan o'tkazilgan suxbatlarning videotasvirlarini namoyish qilish orqali ularga tushunchalar berish borasida hamkorlikni amalga oshirib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Voyaga yetmagan va yoshlar bilan ishlashda quydagi kamchilik va takliflarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. Har bir profilaktika inspektori tarbiyasi o'g'ir voyaga yetmagan va yoshlar bilan ishlashda uning oilasi, o'qish joyi va tashqi muhit haqidagi ma'lumotlarni ushbu shaxs tarbiyasiga ta'siri haqida yetarlicha o'rganilishi.
2. Profilaktika inspektori va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik yetarlicha tashkil etilmayotganligi.
3. Ta'lim muassasida tahsil olayotgan yoshlarning qiziqishlari va ular uchun zaruriy bo'lgan ijtimoiy foydali to'garaklarning yetishmasligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi.

O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida» gi 2016-yil 16-sentyabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T-2016 № 38. – 11-m.

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida» gi 2014-yil 14-maydagi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonunhujjatlari to'plami. T-2014. – № 20. – 17-m.

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» gi 2016-yil 14-sentyabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T-2016-yil, 37-son.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-sonli «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T-2021.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi PF-60-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T-2021.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bolinmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-2896-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonunhujjatlari to'plami. T-2017-yil, 37-son.

<https://econferencezone.org>

Интернет сайтлари:

<http://akadmvd.uz> (O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)

<http://lex.uz> (O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi)

<http://www.ziynet.uz> (Axborot ta`lim tarmog`i)

<http://www.tsul.uz> (Toshkent Davlat Yuridika Universiteti)

<https://gazeta.uz/uzc/news/uzbnews>

<https://stat.uz>

